Toshkent davlat tibbiyot universiteti ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisligi fanlar katalogi

Ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik) shifri va nomi: 60910200-Davolash ishi

T/r	Fanning kodi*	Fanning nomi	Fanning qisqa tavsifi	Kredit miqdori	Semestr
Majburiy fanlar					
1	O‘RTTXT11209	O‘zbek (rus) tili. Tibbiyotda xorijiy til	jonli muloqotlar o‘z fikrini mustaqil yozma va og‘zaki nutq orqali ifodalay olish; so‘z va iboralarning tarjimasi, talaffuzi va ixtisoslikka oid so‘z boyligi hamda zarur til ko‘nikmalarini egallash; является приобретение языковых знаний, выработка и совершенствование речевых навыков и умений на русском языке в актуальных для обучающихся сферах: учебно-научной, профессиональной, социально-культури. xorijiy til bo‘yicha bilimlarini ixtisoslik yo‘nalishi va kasbiy ehtiyoji kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda tibbiy atamalarni xorijiy tilda o‘rgatish yo‘li bilan kengaytirib va rivojlantirib, ularning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishlari uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishdir.	9	1-2
2	TBUG1106	Tibbiy biologiya. Umumiy genetika	mutaxassislarda ilmiy dunyoqarashni shakillantirish; biologik qonuniyatlariga urg‘u bergan holda odamni biosotsial mavjudot sifatida o‘rganish; amaliy sog‘liqni saqlashga qiziqish uyg‘otish; nazariy, uslubiy va amaliy ko‘nikmalar orqali mustaqil ishga tayyorlash; ham nazariy ham klinik modullarni o‘zlashtirish uchun asosni shakllantirish lozim.	6	1
3	TK1106	Tibbiy kimyo	umumiy, analitik, fizik, kolloid kimyo asoslari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lgan, fizik-kimyoviy jarayonlar mohiyatini bilgan holda fizik-kimyoviy kattaliklarni xisoblashni bajara oladigan, organik kimyo asoslari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lgan xolda, biokimyoviy jarayonlarda qatnashuvchi biopolimerlar va bioboshqaruvchi moddalar tuzilishi, hossalari va funksiyalarini tushinadigan, ular ishtirokida boradigan jarayonlarni modellashtirib bajara oladigan, tirik organizmda kechuvchi kimyoviy jarayonlarning ilmiy asoslarini xujayra va molekulyar darajada tushinib yeta oladigan, olingan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladigan oilaviy shifokor tayorlash yo‘nalishidagi mutahassislarni tayyorlash.	6	1
4	TBF1205	Tibbiy va biologik fizika	talabalarga organizmdagi a’zo va tizimlar faoliyatidagi fiziologik jarayonlarni to‘g‘ri talqin qilish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni singdirish, organizm a’zo va to‘qimalarida turli kasalliklarning paydo bo‘lishi jarayonlari asosida fizikaviy o‘zgarishlarning birlamchiligini ko‘rsatishdir.	5	2
5	LT1204	Lotin tili va tibbiy terminologiya	talabalarda ta’lim tarbiya, qonun va qoidalardan hamda didaktik tamoyillaridan kelib chiqib, davolash, tibbiy profilaktika va fundamental tibbiyot fakultetlari talabalarining Lotin tili va tibbiy terminologiya modulining asosini o‘zlashtirishga, shuningdek bu bilimlarni **oilaviy shifokorlik** amaliyotida qo‘llash, anatomik, klinik va farmatsevtik atamalarni shakllantirish va talabalarga tibbiy atamalarni lotin va yunon dubletlarini o‘rganish yo‘li bilan yo‘naltirilgan o‘z kasbiy mahoratlarini kengaytirish va rivojlantirish,	4	2

			ularning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishlarida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish.		
6	TAT1205	Tibbiyotda axborot texnologiyalari	Tibbiyotda axborot texnologiyalari modulining bugungi kunda tibbiyot masalalarini yechishda, hamda davolash va ilmiy - amaliy faoliyatni sifatli darajada olib borishda, axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalana oladigan kadrlarni tayyorlashda alohida o‘rin tutadi. Bakalavrlar zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida olingan tibbiy - biologik axborotni qayta ishlash, taxlil qilish, ish jarayonini avtomatlashtirish hamda to‘g‘ri qaror qabul qila olishi zarur. Jumladan, matematik modellashtirish uslublari, internet tarmog‘ida, zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan ishlashni bilishi zarur. Axborot texnologiyalarining ahamiyati va rivojlanishini tendensiyalarini bilishi texnik, dasturiy, tarmoq resurslaridan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishini talab etadi.	5	2
7	AN112314	Odam anatomiyasi	talabalarda odam organizmining tuzilishi, a’zo va to‘qimalarining funksional va topografik anatomiyasi, yoshga qarab o‘zgarishi haqida bilim, ko‘nikma (uquvlar) va malakani shakllantirishdir Ushbu maqsadga erishish uchun modul talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, inson organizmi tuzilishiga nisbatan uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.	14	1-2-3
8	GS12309	Gistologiya, sitologiya, embriologiya	odam organizmi organ va to‘qimalarining embrional rivojlanishi, mikroskopik va submikroskopik tuzilishi, hujayralarning sito- va gistofiziologiyasining asosiy qonuniyatlarini o‘rganish, gistologik preparatlarni identifikatsiya va interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini egallash.	9	2-3
9	BK13409	Biokimyo	biokimyoning hozirgi kun yutuqlari asosida talabalarda materialistik dunyoqarash, dinamik, funksional va molekulyar biokimyo asoslari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lgan, organizmda kechayotgan metabolik jarayonlar, ularning asoslari, qonuniyatlarini o‘zlashtirib, meyoriy biokimyoviy ko‘rsatkichlarni bilgan, ularni aniqlay oladigan, bo‘lajak oilaviy shifokori uchun juda zarur odam fiziologik vazifalarining molekular asoslari, kasalliklar patogenezining molekular mexanizmlari, kasalliklarining oldini olish va davolashning biokimyoviy asoslari, kasalliklarni tashxislash va davolash samaradorligini nazorat qilishga tushinib yeta oladigan, olingan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladigan mutahassislarni tayyorlash.	9	3-4
10	FZ13410	Normal fiziologiya	funksional tizim mavqei asosida sog‘liqni ta’minlash va sog‘lom organizmning ishlash mexanizmlarini bilish. Sog‘liqni diagnostikasini, ish qobiliyatini, individual funksional aktivligini prognoz qilish, ilmiy metodologik asoslarini shakllantirish, ko‘nikmalarini egallash, bo‘lajak umumiy amaliyot shifokori mutaxassisini davolash ishi (kasbiy ta’lim) yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlash.	10	3-4
11	MB13410	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya	talabalarga mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya, mikologiya, parazitologiya sohasidagi bilimlarning nazariy, amaliy asoslarini, qonuniyatlarini o‘rgatish va yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchilarini ajratib olish, indikatsiya, identifikatsiya qilish, olingan natijalarni to‘g‘ri interpretatsiyasi asosida ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.	10	3-4
12	PS1304	Psixologiya	talabalarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish, odob-axloq, tarbiya, hayotiy va kasbiy faoliyatning turli murakkab vaziyatlaridan chiqib keta olish, mustaqil fikrlash va shaxsiy xatti-harakatlari oqibatlarini oldindan sezish, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, maqsadga erishish, ta’lim-tarbiya faoliyatini samarali tashkil qilish, tibbiy ta’limda boshqaruv va menejmentga oid pedagogik va psixologik yondashuvlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.	4	3
13	KAN1504	Klinik anatomiya (Operativ jarrohlik va topopgrafik anatomiya)	odam organizmi a’zo va tizimlari haqida nazariy va amaliy bilimlarni, klinik fikrlashning topografo-anatomik negizlarini shakllantirish, amaliy operativ ko‘nikmalar va tipik xirurgik usullarini bajarish texnikasini o‘rgatish, zamonaviy xirurgiya amaliyotlari haqida ma’lumotlar berish, talab va standartlarda	4	5

			belgilangan umumiy amaliyot shifokori faoliyatini mustaqil bajarish uchun zarur bo‘lgan umummadaniy, umumkasbiy, kasbiy kompetensiyalarni hosil qilishdan iborat.		
14	PAN15607	Patologik anatomiya	modulning tarixi va rivojlanish tendentsiyasi, istiqbolli masalalarini qamraydi, inson organizmida kasallikni rivojlantiruvchi etiologik omillar, klassifikatsiyasi, ularning organizm bilan o‘zaro munosabati, hamda bo‘lg‘usi umumiy amaliyot shifokorlarida kasallikning etiologik omillarini aniqlash, tashxis qo‘yish va belgilarini asoslash uchun nazariy zamin yaratib beradi, shuningdek, talabalarda klinik fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi.	7	5-6
15	PFZ15607	Patologik fiziologiya	Patologik fiziologiya o‘quv moduli dasturi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga tadbiq etib, talabani nazariy ma’lumotdan boshlang‘ich amaliy ko‘nikmalarni bajarishga o‘rgatib, orttirilgan ko‘nikmalarni klinik amaliyot bilan uyg‘unlashtirib, mustaqil ravishda kasalliklarning etiologiya va patogenezini aniqlash uchun zamin yaratib beradi. Inson organizmida kasallikni rivojlantiruvchi etiologik omillar, klassifikatsiyasi, ularning organizm bilan o‘zaro munosabati hamda bo‘lg‘usi shifokorlarda kasallikning etiologik omillarini aniqlash, tashxis qo‘yish va belgilarini asoslash uchun nazariy zamin yaratib beradi va talabalarda klinik fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi.	7	5-6
16	FR15607	Farmakologiya	oila shifokori tayyorlash jarayonida talabalarga dori vositalarining guruhlarini, ularning ta’sir mexanizmlarini, yoshga qarab terapevtik miqdorlarini tanlashni, dori shakllariga retseptlar yozishni, kiritish yo‘llarini, kasalliklarda qo‘llanilishiga doir ko‘rsatmalarini, nojo‘ya ta’sirlarini va qo‘llash mumkin bo‘lmagan holatlarni o‘rgatishdan iboratdir.	7	5-6
17	GXGTE1406	Gigiyena, harbiy gigiyena. Tibbiy ekologiya	bo‘lajak amaliyot shifokorlarida gigiyenik fikrlash qobiliyatini shakllantirish, gigiyenik bilimlarning nazariy asoslarini, gigiyena va tibbiy ekologiyadagi asosiy tushunchalar va kategoriyalarini, inson organizmiga atrof muhit va mehnat sharoitlarining o‘ziga xos ta’siri haqidagi tushunchalarni berish, modulga taalluqli bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirilishini ta’minlash va ular ongida aholining salomatlik holatini yuqori darajada bo‘lishi va salomatligini ta’minlash tushunchalarini shakllantirish hamda ularni amalda tadbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishni o‘rgatish, kasalliklarni yuzaga kelishida atrof muhit omillaridan ijtimoiy-gigiyenik omillar va mahalliy tabiiy iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda insonni o‘rab turgan tashqi muhitning eng muvofiq sharoitlaridan davolash va sog‘lomlashtirish maqsadida foydalanishni o‘rgatish.	6	4
18	JSMM1606	Jamoat salomatligi. Marketing, menejment	Respublikamizda aholi salomatligini saqlash va uni o‘rganish usullari xamda aholiga tibbiy xizmatni tashkil etish bo‘yicha shifokorlarga fanning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini o‘rgatish, bozor faoliyatini asoslarini, sog‘liqni saqlash soxasida marketing xizmatlarining vazifa va maqsadlarini, menejerning yetakchilik sifatidagi xususiyatlarini xamda nazariy, amaliy, uslubiy va tashkiliy bilimlarni xosil qilishdan iborat.	6	6
19	TKK1106	Tibbiyot kasbiga kirish	tibbiyot kasbiga kirish moduli o‘quv rejaning klinik modullar blokiga taalluqli bo‘lib, 1 kursda o‘qitiladi va ilk bosqichi hisoblanadi. Tibbiyot kasbiga kirish moduli bo‘lajak mutaxassisni tayyorlashning ilk bosqichidan talabalarga kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni boshlaydi, talabalar tomonidan bemor bilan bo‘layotgan muammolarni aniq tasavvur qila olish, muloqot qilish, tibbiyot muassasalarida o‘zini tutish, bemorlarni parvarish qilishni o‘rgatadi.	6	1
20	IKP15608	Ichki kasalliklar propedevtikasi	Ushbu modul dasturi modulning tarixi va rivojlanish tendentsiyasi, istiqbolli masalalarini qamraydi, inson organizmida kasallikni rivojlantiruvchi etiologik omillar, klassifikatsiyasi, ularning organizm bilan o‘zaro munosabati, hamda bo‘lg‘usi umumiy amaliyot shifokorlarida kasallikning etiologik omillarini aniqlash, tashxis qo‘yish va belgilarini asoslash uchun nazariy zamin yaratib beradi, shuningdek, talabalarda klinik fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi.	8	5-6

21	IK178911	Ichki kasalliklar	Ichki kasalliklar – keng tarqalgan kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik kechishi, laboratoriya, asbob-uskunalar, klinik ko‘rsatmalar yordamida tashxis qo‘yish, oqibati, asoratlari, oldini olish choralari, kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda tezkor yordam ko‘rsatish, mustaqil ravishda tekshirish o‘tkazish, ishga layoqatliligini bilish, davolash asoslarini o‘rgatadigan modul bo‘lib, umumiy amaliyot shifokori-bakalavr mutaxassisligiga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.	11	7-8-9
22	DV1704	Dermatovenerologiya	Dastur O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti va bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘qitish jarayonida qo‘llagan holda, talabani nazariy ma’lumotidan boshlang‘ich amaliy ko‘nikmalarni bajarishga o‘rgatib va orttirilgan ko‘nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llashga imkon yaratadi. Dermatovenerologiya modul va klinik jixatdan terining funktsiyalarini va strukturasini normada vamodul patologiyada o‘zgarishlarini, ichki a’zolar va tizimlarning patologiyasini teri bilan uzviy bog‘lanishini, har xil teri kasalliklarini, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infektsiyalarni o‘rganadi. Bakalavr tayyorlashda dastur orqali - keng tarqalgan dermatozlar va jinsiy aloqa yo‘li bilan yuqadigan kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olish uslublarini o‘rganish.	4	7
23	STVFHAS1704	Sud tibbiyoti. Vrach faoliyatining huquqiy asoslari	**“Sud tibbiyoti”** modulining nazariy asoslarini o‘zlashtirish, talabalarga bo‘lajak shifokorlik faoliyatida zarur bo‘lgan sud tibbiyoti bo‘yicha nazariy bilimlarni o‘rgatish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun modul talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, huquqga oid tibbiy-biologik kelib chiqishga ega hodisa va jarayonlarga ilmiy-uslubiy yondashuvni shakllantirish vazifalarini bajaradi. **Vrach faoliyatining huquqiy asoslari** modulini o‘qitishdan maqsad – talabalarga tibbiyot huquqi, tibbiy faoliyatni belgilovchi huquqiy me’yorlar bo‘yicha nazariy bilimlar berish hamda ularni shifokorlik faoliyatida tadbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdir. Mazkur maqsadga erishish uchun modul talabalarga nazariy bilimlarni o‘rgatish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda, ularda tibbiy faoliyatga oid turli huquqiy munosabatlarning xususiyatlariga tegishli ilmiy-uslubiy yondashuvni shakllantirish vazifasini bajaradi.	4	7
24	FT1704	Ftiziatriya	“Ftiziatriya” modulining mazmuni, predmeti va metodi hamda mohiyati aks ettirilgan. Ftiziatriya moduli bo‘yicha dastur nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar asosida talabalarga vrachlik mutahassisligini yaxshi o‘zlashtirish uchun muhim bo‘lgan mustaqil o‘quv tarkibi va talabalarning oilaviy shifokori (OSh) mutahassislarini tayyorlash bo‘yicha jarayon mobaynida mustaqil ishi, shuningdek ftiziatriya o‘quv jarayonini axborot-uslubiy ta’minlovlaridan iborat. Modul dastur umumiy amaliyot shifokorini tayyorlash dasturi asosida tuzilgan, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining davolash va professional ta’lim yo‘nalishlari talabalariga ftiziatriya modulidan ta’lim berish uchun mo‘ljallangan.	4	7
25	TR1706	Tibbiy radiologiya	Ushbu dastur tibbiy radiologiya usullarining fizik asoslari, radiobiologiya, turli radiologik usullarda tasvir olish printsiplari, turli a’zo va tizimlar tekshiruvida nur tashxisi usullar o‘rni, radiologik tashxis asoslari va algoritmi, nur tashxisi tarixi va rivojlanish, istiqboli masalalarini qamraydi hamda bo‘lg‘isi umumiy amaliyot vrachlarida nur tashxisi usullarni to‘g‘ri tanlash, natijalarni klinik va boshqa tekshiruvlar bilan taqqoslash, kasalliklarni radiologik belgilari aniqlash va to‘g‘ri ifoda etishda zamin yaratib beradi.	6	7

26	EN1804	Endokrinologiya	talabalarga turli yoshdagi bolalar organizmining anatomik – fiziologik hususiyatlaridan kelib chiqqan xolda, a'zolar va tizimlarini tekshirish usullari va ularning asosiy kasalliklari semiotikasi haqida bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.	4	8
27	KF11004	Klinik farmakologiya	muayyan patologik jarayonda dori vositalarining klinik farmakologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda eng samarali va havfsiz preparatni to'g'ri tanlash, hamda o'tkazilayotgan davolashning samaradorligini va havfsizligini baholovchi mezonlar bilan ta'minlash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.	4	10
28	NTG11006	Nevrologiya. Tibbiy genetika	Nevrologiya moduli talabalarga umumiy va klinik nevrologiya asoslarini, kasalliklar profilaktikasini, erta diagnostikasi va davolash usullarini o'rgatishdan iborat. **Tibbiy genetika -** talabalarga irsiy kasalliklari bilimlarning nazariy asoslarini, modulning amaliy ko'nikmalari bo'yicha asosiy tushunchalari va ularni o'rganish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishga yo'naltirilgan, o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr: «Sog'lom avlod», «Ona va bola» Davlat dasturining asosiy yo'nalishlari; turli yoshdagi bolalarning jismoniy va psixomotor rivojlanish normativlari; bolalarda uchraydigan nasliy va tug'ma kasalliklar etiologiyasi, ularning kelib chiqishi, ijtimoiy, iqlim va ekologik faktorlarning ta'siri, irsiy kasalliklar profilaktikasi, tashxisi, differensial tashxisi, umumiy terapiyasi, reabilitatsiyasi usullarining nazariy va amaliy asoslarini o'rgatishdan iborat, shuningdek, talabalarda turli yoshdagi irsiyat qonuniyatlarini o'rganish, irsiyat asoslarini ilmiy-metodologik shakllantirish, irsiyat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish, talabalarni teoretik genetika asoslari bilan tanishtirish, irsiy kasalliklar ularning profilaktikasi va erta diagnostikasini o'rganish hamda kasalliklarning zamonaviy davolash usullariga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni bilishidan iborat.	6	10
29	ON1904	Onkologiya	onkologik kasalliklar profilaktikasi, tashxisi, differensial tashxisi, umumiy terapiyasi, reabilitatsiyasi usullarining nazariy va amaliy asoslarini o'rgatishdan iborat, shuningdek, talabalarda turli yoshdagi onkologiya, bolalar onkologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, onkologik dunyoqarash asoslarini ilmiy-metodologik shakllantirish, onkologiya haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish, talabalarni teoretik onkologiya asoslari bilan tanishtirish, o'smani birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, xavf guruhlarini aniqlash, o'sma oldi holat va kasalliklarini davolash, xavfli o'smalarning asosiy nozologik shakllarini, ularning profilaktikasi va erta diagnostikasini o'rganish hamda onkologik kasalliklarning zamonaviy davolash usullariga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni bilish. Bo'lajak mutaxassis organizm holatini ob'ektiv baholashga asoslangan klinik fikrlashni shakllantirish.	4	9
30	PNTPS11005	Psixiatriya, narkologiya. Tibbiy psixologiya	talabalarni klinik fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan uslublarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali psixiatrik va narkologik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, klinik ko'rinishlari, kechish turlari, tashxis va qiyosiy tashxislari hamda davolash va parvarish usullari, kasallikni oldini olish chora – tadbirlarini o'rgatishdan iboratdir. **Tibbiy psixologiya:** talabalarga tibbiy-psixologik tekshirish qonun-qoidalari, psixologik suhbat qurish uslublari, psixogigiena, psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixoterapiya va funksional tekshirish usullari haqida mukammal bilim berish va ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish. Shuningdek, tibbiy psixologiyada bilish jarayonlarini o'rgatish va ularni tekshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ham modul dasturining asosiy maqsadlaridan biridir. Bu umumiy amaliyot shifokori ish jarayonida bemorlar bilan to'laqonli muloqotda bo'lib ishlash uchun zamin yaratadi.	6	10

31	YuKBYuK EPXE1891011	Yuqumli kasalliklar. Bolalar yuqumli kasalliklari. Epidemiologiya, XE	**Yuqumli kasalliklar. Bolalar yuqumli kasalliklari**: bo‘lajak OSh yuqumli kasalliklar, bolalar yuqumli kasalliklari etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenezi, asosiy klinik simptomlari, tashxisoti va davolash, shuningdek, profilaktika asoslari (umumiy va maxsus)ni o‘rgatishga qaratilgan. **Epidemiologiya:** muayyan jarayonda yuqumli kasalliklarning epidemiologik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda eng samarali chora-tadbirlarni to‘g‘ri tanlash hamda o‘tkazilayotgan profilaktik chora-tadbirlarnining samaradorligini baholovchi mezonlar bilan ta’minlash bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat. O‘qitishdan maqsad, yuqori kvalifikatsiyali, yuqori bilim doirasiga ega bo‘lgan, amaliy ko‘nikmalarni amalda bajara oladigan, infeksion kasalliklarni oldini olish uchun profilaktik chora-tadbirlarni zamonaviy tibbiy bilim va texnikalar asosida ishlab chikishni biladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. **Harbiy epidemiologiya:** Belgilangan vazifa bo‘yicha funksional vazifalarni bajarish uchun harbiy epidemiologiyaning nazariy va amaliy masalalari bo‘yicha kerak bo‘lgan xajmda talabalarni o‘qitish, kelajak avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, turli xil ekstremal sharoitlarda o‘zligini yo‘qotmay, dadil harakatlana olishi kabi jihatlar shakllantirishdan iborat.	11	8-9-10
32	GXDT11104	Gematologiya, HDT	talabalarda anemiyalar, leykozlar, gemorragik diatezlarga tashxis qo‘yish va davolash, profilaktika tadbirlarining asosiy prinsiplarini, transfuziologiya asoslarini talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi ta’minlash hisoblanadi. “Harbiy dala terapiyasi” moduli talabalarni nazariy, amaliy, hamda tashkiliy bilim va amaliy ko‘nikmalar asosida harbiy holatlarda tibbiy yordamni tashkil etish, bemorlarga to‘g‘ri tashxis qo‘yish, birlamchi vrachlik, hamda ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.	4	11
33	KALIM11104	Klinik allergologiya, immunologiya	talabalarga aholi o‘rtasida o‘tkir va surunkali allergik kasalliklarni erta tashxislash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, allergik kasalliklarning tashxislashning zamonaviy laborator usullaridan keng foydalangan xolda bemorlarning tibbiy muammolarning yechimini topish haqida bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishdir.	4	11
34	SO‘Q11204	Simulyatsion o‘qitish	xavfsiz tibbiy yordamni tashkil etish borasida talabalarning malakasini oshirish, ta’limi jarayonida olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, talabalarning ijodiy o‘sishini rag‘batlantirishdan iborat.	4	12
35	AG18906	Akusherlik va ginekologiya	bo‘lajak umumiy amaliyot shifokori malakaviy tasnifiga asoslanib, talabalarga avvalgi bosqichlarda olgan bilimlariga tayangan holda, akusherlik va ginekologiyadan, dalillarga asoslanib, fiziologik va asoratlanib kechayotgan homiladorlikda samarali perinatal yordam tamoyillariga, normal va patologik tug‘ruq va chilla davrini olib borish, chaqaloqlarni parvarishlash, akusherlik va ginekologiya amaliyotlarida ko‘p uchrab turadigan shoshilinch holatlarda, tashxislash, mustaqil ravishda birlamchi yordam ko‘rsatish va oldini olish usullarini o‘rgatish.	6	8-9
36	BKP15606	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	talabalarga turli yoshdagi bolalar organizmining anatomik – fiziologik hususiyatlaridan kelib chiqqan xolda, a’zolar va tizimlarini tekshirish usullari va ularning asosiy kasalliklari semiotikasi haqida bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishdir.	6	5-6
37	PD17906	Pediatriya	talabalarda turli yoshdagi sog‘lom va bemor bolalar va ularning ota-onasi bilan muloqat qilish, bolalarni tekshirish, bolalik yoshida uchrovchi kasalliklarni tashxislash, tez yordam ko‘rsatish, davolash va profilaktika choralarini belgilash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.	6	7-9
38	UX15606	Umumiy xirurgiya	jarrohlikda antiseptika va aseptika, xirurgik infeksiya haqida tushuncha, uni oldini olish muommolarini,	6	5-6

			yiringli infeksiya turlarini (yuzaki joylashgan yiringli kasalliklar), shoshilinch jarrohlik holatlarida birinchi yordam ko‘rsatishni (qon ketishni to‘xtatish, bog‘lam qo‘yish, jarohatlanganlarni immobilizatsiya va transortirovka qilish) o‘rgatishdan iborat.		
39	XK18908	Xirurgik kasalliklar	xirurgik kasalliklar profilaktikasi, tashxisi, differensial tashxisi, davolash, reabilitatsiyasi usullarining nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatishdan iborat, shuningdek, talabalarda turli yoshdagi xirurgik kasalliklar qonuniyatlarini o‘rganish, xirurgik dunyoqarash asoslarini ilmiy-metodologik shakllantirish, xirurgik kasalliklar xaqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish, talabalarni teoretik xirurgik kasalliklar asoslari bilan tanishtirish, xirurgik kasalliklarning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, xavf guruxlarini aniqlash, xirurgik kasalliklarni davolash, asosiy nozologik shakllarini, ularning profilaktikasi va erta diagnostikasini o‘rganish hamda xirurgik kasalliklarning zamonaviy davolash usullariga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarni bilish. Bo‘lajak mutaxassis organizm holatini ob’ektiv baholashga asoslangan klinik fikrlashni shakllantirish.	8	8-9
40	TROXDJNX18906	Travmatologiya va ortopediya, HDJ. Neyroxirurgiya	travmatolog-ortoped vrachlarning professional faoliyati uchun ahamiyati, travmatologiya-ortopediya taraqqiyoti tarixi, travmatizm va uning turlari, suyak to‘qimasining reparativ regeneratsiyasi, tayanch-harakat sistemasi kasalliklari va shikastlanishlarini davolashning zamonaviy prinsiplari, tayanch-harakat sistemasining anatomiyasi va fiziologiyasi, sinishlar va chiqishlar klassifikatsiyasi, tayanch-harakat sistemasi shikastlanishlari va kasalliklarini davolashning zamonaviy usullari, ko‘p uchraydigan ortopedik kasalliklarning etiologiya, patogenezi va davolashni o‘rgatishdan iborat. **Neyroxirurgiya:** talabalarni nazariy, amaliy hamda tashkiliy bilim va amaliy ko‘nikmalar asosida neyroxirurgik kasalliklar profilaktikasi va neyroxirurgik yordamni tashkil etish, bemorlarga to‘g‘ri tashxis qo‘yish, birlamchi vrachlik hamda ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni o‘rgatishdir. Shuningdek, talabalarga turli yoshdagi neyroxirurgik, bolalar neyroxirurgiyasi qonuniyatlarini o‘rganish, neyroxirurgik dunyoqarash asoslarini ilmiy-metodologik shakllantirish, neyroxirurgiya haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish, talabalarni nazariy neyroxirurgiya asoslari bilan tanishtirish, neyroxirurgik jarohatlar va kasalliklar profilaktikasi va erta diagnostikasini o‘rganish hamda neyroxirurgik kasalliklarining zamonaviy davolash usullariga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarni bilish. Bo‘lajak mutaxassis organizm holatini ob’ektiv baholashga asoslangan klinik fikrlashni shakllantirishdan iborat.	6	8-9
41	UR1704	Urologiya	talabalarga urologik kasalliklarni to‘g‘ri tashxislash, o‘tkir patologik holatlarni aniqlash va samarali davolashni buyurish uchun bilimlarni, bemorlarga kerakli tekshirishlarni va davolash muolajalarini bajarishni amalga oshirish uchun ko‘nikmalarni, hamda surunkali kechadigan kasalliklari bo‘lgan bemorlarni dispanserlash va reabilitatsiya tadbirlarini o‘tkazishni amalga oshirish uchun bilimlarni o‘rgatishdan iboratdir. Bo‘lajak mutaxassis organizm xolatini ob’ektiv baxolashga asoslangan klinik fikrlashni shakllantirish.	4	7
42	ANR11004	Anesteziologiya va reanimatologiya	anesteziologiya va reanimatologiya tushunchasi, anesteziya usullari, turlari, asoratlari va ularning profilaktikasi, reanimatsiyaning asosiy prinsiplari, nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatishdan iborat. Shuningdek, talabalarda anesteziya qonuniyatlarini o‘rganish, anesteziya va intensiv terapiya xaqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish, talabalarni reanimatsiyaning nazariy asoslari bilan tanishtirish, suv-elektrolit, kislota-ishqor balansi buzilishlarini to‘g‘ri tashxislash, xavf guruxlarini aniqlash, zamonaviy davolash usullariga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarni bilish.	4	10
43	OTST11006	Otorinoloringologiya va	Otorinolaringologiya va stomatologiya fanini o‘qitishdan maqsad**,** talabalarga LOR a’zolari kasalliklari holatini tekshirish usullarini, aniqlangan kasalliklarga tegishli yordam ko‘rsatish, organizmni umumiy	6	10

		stomatologiya	kasalliklaridan farqlay olish va shu kasalliklarni oldini olish maqsadida profilaktika ishlarini o‘rgatishdan iborat		
44	OF1904	Oftalmologiya	oftalmologik kasalliklar profilaktikasi, tashxisi, differensial tashxisi, umumiy davolash asoslari, reabilitatsiyasi usullarining nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatishdan iborat, shuningdek, talabalarda turli yoshdagi oftalmologik qonuniyatlarini o‘rganish, oftalmologik dunyoqarash asoslarini ilmiy-metodologik shakllantirish, oftalmologiya haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish, talabalarni nazariy oftalmologiya asoslari bilan tanishtirish, oftalmologik kasalliklarni birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, xavf guruhlarini aniqlash, oftalmologiyadagi asosiy nozologik shakllarini, ularning profilaktikasi va erta diagnostikasini o‘rganish hamda oftalmologik kasalliklarning zamonaviy davolash usullariga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarni bilish. Bo‘lajak mutaxassis organizm holatini ob’ektiv baholashga asoslangan klinik fikrlashni shakllantirish.	4	9
45	OShTKK1111206	Oilaviy shifokorlikda terapiya. Kasb kasalliklari	nazariy, uslubiy va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish yo‘li bilan talabani mustaqil faoliyatga tayyorlash, nazariy va klinik fanni o‘zlashtirish uchun zarur poydevor bilimlarni shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun modul talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, eng ko‘p uchraydigan kasalliklarni kelib chiqish asoslarini, kasalxonagacha bo‘lgan davrda umumiy tashhislash tamoyillari, kasallikni klinik ko‘rinishi, laborator va instrumental tekshiruv usullari, davolashi, reabilitatsiyasi, kasalliklarni oldini olish (profilaktika) usullarini, oilaviy shifokor taktikasini bilishi va ko‘nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi “Kasb kasalliklari”ning asosiy bo‘limlarini o‘z ichiga oladi va tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalariga modulning nazariy asoslarini o‘zlashtirish, kasb kasalliklaridagi asosiy xujjatlar turlarini, kasb kasalliklari tashxisini aniqlash ko‘nikmalarini egallash, kasb kasalliklarida asosiy tashxis usullari va davolash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zamin yaratib beradi.	6	11-12
46	OShPN1111207	Oilaviy shifokorlikda pediatriya. Neonatologiya	talabalarda turli yoshdagi bolalarni tekshirish, jismoniy rivojlanish monitoringini o‘tkazish, bolalik yoshida uchrovchi kasalliklarni erta tashhislash, davolash, profilaktika va reabilitatsiya qilish choralarini belgilash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. **Neonatologiya:** Chaqaloqlik davri kaslliklari xaqida tushunchalar berish, chaqaloqlarda uchraydigan kasalliklarni dalillarga asoslangan tibbiyot va JSST ko‘rsatmalariga asoslangan xolda tashxislash va davolashni o‘rgatish, ularni tekshirish, jismoniy rivojlanish monitoringini o‘tkazish, neonatal davrda uchrovchi kasalliklarni erta tashhislash, davolash, profilaktika va reabilitasiya qilish choralarini belgilash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish.	7	11-12
47	OShXBX1111206	Oilaviy shifokorlikda xirurgiya. Bolalar xirurgiyasi	xirurgik kasalliklar profilaktikasi, tashxisi, differentsial tashxisi, davolash, reabilitatsiyasi usullarining nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatishdan iborat, shuningdek, talabalarda turli yoshdagi xirurgik kasalliklar qonuniyatlarini o‘rganish, xirurgik dunyoqarash asoslarini ilmiy-metodologik shakllantirish, xirurgik kasalliklar haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish, talabalarni teoretik xirurgik kasalliklar asoslari bilan tanishtirish, xirurgik kasalliklarning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, xavf guruhlarini aniqlash, xirurgik kasalliklarni davolash, asosiy nozologik shakllarini, ularning profilaktikasi va erta diagnostikasini o‘rganish hamda xirurgik kasalliklarning zamonaviy davolash usullariga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarni bilish. Bo‘lajak mutaxassis organizm holatini ob’ektiv baholashga asoslangan klinik fikrlashni shakllantirish. Xirurgik kasalliklarni operatsiyadan keyingi davrda parvarishlash, ularning jarohatlariga ishlov berish, kasallik qaytalanmasligi profilaktik choralarini ko‘rish.	6	11-12

			Bolalar xirurgiyasi: odam organizmi organlarning embrional rivojlanishini, hamda bola organizmining tug‘ma nuqsonlar va anomaliyalarning tug‘ilishi sabablarini, diagnostikasi va jarrohlik yo‘li bilan davolashni o‘z ichiga oladi. Davolash va professional ta’lim yo‘nalishlarining talabalarini “bolalar xirurgiyasi” moduli bo‘yicha o‘qitishning asosiy prinsipi tug‘ma rivojlanish nuqsonlari va anomaliyalarini aniqlash, fundamental va boshlang‘ich klinik modullar integratsiyasiga asoslanib, inson filo-, onto-, va embriogenezi, o‘sish fiziologiyasi hamda patologiyasi, semiotikasi, zamonaviy laborator va uskunaviy tekshirish usullari orqali tashhislashni hamda amaliy ko‘nikmalarini egallashdan iborat.		
48	OShAG1111206	Oilaviy shifokorlikda akusherlik va ginekologiya	fiziologik, asoratlangan va somatik kasalligi bilan homiladorlarni va fiziologik tug‘ruqdan keyingi davrni olib borish; akusherlik va perinatal patologiyali havf omillarini aniqlash; asoratli kechayotgan va ekstragenital patologiyali xomiladorlarni muddatlarini va gospitalizasiya kriteriyalarini o‘rgatish; tashxislashni, shoshilinch yordam ko‘rsatishni, bemorlarni boshqa muassasalarga havfsiz va o‘z vaqtida yuborishni o‘rgatish; asoratlanmagan, asosiy ginekologik kasalliklarni davolash, tashxislash va dispanserizasiyalash ko‘nikmalarini ishlab chiqarish; kontratsepsiyaning barcha usullari bo‘yicha maslahatlash bilimlarini, bachadon ichi spiralini qo‘yish va olishni, oilani rejalashtirish va sog‘lom onalik choralarini olib borish ko'nikmalarini ishlab chiqish va bilimlarini shakllantirish.	6	11-12
49	RB11204	Reabilitologiya. Sport tibbiyoti	bo‘lajak oilaviy shifokorlarda tibbiyotdagi kasbi bilan bog‘lik bo‘lgan turli xil kasalliklarda tibbiy, jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya jarayonidagi chora tadbirlar, insonlar salomatligini saqlab qolish, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish bo‘yicha talabalarda mustahkam bilim, amaliy ko‘nikma, mahorat tizimini shakllantirish.	4	12
50	TTYo11205	Tez tibbiy yordam	kritik holatlar bo‘yicha nazariy, uslubiy va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish yo‘li bilan, tinch va halokatlar vaqtida uchrashi mumkin bo‘lgan kritik holatlarni tezkor diagnostika qilishni o‘rgatish va zarur bo‘lgan tez tibbiy yordamni o‘z vaqtida, yetarli xajmda ko‘rsata olish ko‘nikmalarini talabalarda shakllantirishga erishish.	5	12
Tanlov fanlar					
1	ITAS23-404	Ilmiy tadqiqot asoslari	Respublikamiz aholisi orasida salomatlikni qo‘llab –quvvatlash va yaxshilash borasida yangi tadbirlarni o‘tkazish usullarini topishni, aholi salomatligini mustaxkamlash borasida amaliyotda olib boriladigan ilmiy izlanishlar va o‘z-o‘zini baholash tadbirlarining o‘tkazilishini o‘rgatish va tibbiy xizmat istemolchilarining o‘zgarib boradigan talablarini qondirishdir.	3	3-4
2	HFXFM2302	Hayot faoliyati xavfsizligi	Talabalarda hozirgi davrda sodir bo’layotgan tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulotda vaziyatlarning aholi sog‘ligiga, xalq xo‘jaligi ob’ektlariga, davlatning iqtisodiyotiga ta’sirini; radiatsion, kimyoviy qidiruv va dozimetrik asboblar tuzilishini ; jabrlangan aholiga o‘z vaqtida turli xildagi tibbiy yordamni ko‘rsatishni; davolash muassasalarni va tibbiyot xodimlarni doimiy shay holatda bo‘lishini; yakka va umumiy muhofazalanish vositalarni tushuntirish. Ushbu maqsadga erishish uchun modul talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, favqulotda vaziyatlatrdagi hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarni bajaradi.	3	3

3	B2302	Bioetika	Bo‘lajak shifokorlarda burch, sh’an, qadr-qimmat, rostguylik, adolatlilik kabi tushunchalar bilan bog‘liq umum etik qadriyatlar haqida tasavvur uchun zamin yaratish hamda kasbiy faoliyatda vujudga keladigan etik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va hal etish qobiliyatini shakllantirish. Talabalarni tibbiy etikaning tarixiy modellari, bioetikaning shakklanishi va rivojlanishida ahaamiyatli bo‘lgan tarixiy omillar, uning zamonaviy holati va muammolari bilan tanishtirish; talabalarda bitibbiy etikaning tamoyillari va qoidalarini o‘zlashtirish; talabalarda tibbiy faoliyatdagi turli vaziyatlarning etik tahlillariga doir ko‘nikmalarga ega bo‘lish; talabalarda etik nizolarni tartibga solish va tahlil etishda asos bo‘lib xizmat qiladigan ahloqiy qadriyatlar haqida tasavvurni shakllantirish.	5	4
4	PULM2802	Pulmonologiya	Pulmonologiya modulini o‘qitishdan maqsad, yuqori malakali mutahassislar – umumiy amaliyot shifokorlari (terapevtlar, jarroxlar, akusher-ginekologlar)ni tayyorlash hisoblanib, Pulmonologiya moduli uchun kerakli xajmdagi bilim, mahorat va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan nafas a‘zolari kasalliklarini tashhislash va qiyosiy tashhislash, erta aniqlash, profilaktika qilish va davolash, hisob-kitob hujjatlarini yuritish hamda asosiy epidemiologik ko’rsatkichlarni bilish.	2	7-8
5	BTYo2603	Simulyatsion o‘qitish	xavfsiz tibbiy yordamni tashkil etish borasida talabalarning malakasini oshirish, ta’limi jarayonida olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, talabalarning ijodiy o‘sishini rag‘batlantirishdan iborat. zamonaviy simulyatorlarda tez-tez uchraydigan vaziyatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini o‘rgatish; innovatsion interaktiv ilovalar bo‘yicha treninglar (poliklinika va shifoxona sharoitida); interfaol panel orqali zamonaviy diagnostika va davolash standartlarini o‘rgatish.	2	7-8
6	TAS2502	Transfuziologiya asoslari	Modulning tarixi va rivojlanish tendensiyasi, istiqbolli masalalarini qamraydi, donorlik, donorlikka ko‘rsatmalar va qarshi ko‘rsatmalar; AB0 tizimining antigenlari va antitanachalarining asosiy xarakteristikalari, rezus tizimining antigen tarkibi; qon preparatlari va komponentlari, qon o‘rnini bosuvchi moddalarning zamonaviy tasnifi, hamda bo‘lg‘usi umumiy amaliyot shifokorlarida transfuzon terapiyaga ko‘rsatmalarni aniqlash, postransfuzion reaksiyalar va asoratlarda yordam berish chora-tadbirlari uchun nazariy zamin yaratib beradi, shuningdek, talabalarda klinik fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Qon, uning tarkibiy qismlari va qon o‘rnini bosuvchi vositalarni quyish tamoyillari, qon quyish va qon o‘rnini bosuvchi moddalarni quyish uchun ko‘rsatmalar va qarshi ko‘rsatmalar, ularni tibbiy amaliyotda qo‘llash usullari, qon ва qon o‘rnini bosuvchi vositalarni quyishdan keyingi asoratlar va reaksiyalarning oldini olish va davolash usullari va ko‘nikmalarni egallashdir.	2	5
	KLT21202	Klinik laboratoriya tashxisoti	Sog‘liqni Saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inida jinsi, yoshidan qat’iy nazar yoki alohida shaxslarga va oila a’zolariga zamon talablariga javob beruvchi tibbiy diagnostik yordam ko‘lamini amalga oshirishdir.	2	12
	BX2702	Bemor xavfsizligi	talabalarga bemorlar xavfsizligini ta’minlovchi tibbiy yordam standartlarini o‘rgatishdan iborat.	2	7
	Shshbona21102	“Shaxsning salomatlik holatini baholash orqali nogironlikni erta aniqlash”	«Shaxsning salomatlik holatini baholash orqali nogironlikni erta aniqlash” fanini o‘qitishdan maqsad – talabalarda shifokori amaliyotida kerak bo‘ladigan ma’lum xajmdagi bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va shaxs salomatlugini baholash orqali nogironlikni erta aniqlash va oldini olish bo‘yicha profilaktik usullarni egallagan yuqori malakali mutaxassislar – umumiy amaliyot shifokorlari tayorlashdan iborat	2	11

	KIM1702	Klinik immunologiya	talabalarga axoli immunologik kasalliklarni erta tashxislash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, immunologik kasalliklarning tashxislashning zamonaviy laborator usullaridan keng foydalangan xolda bemorlarning tibbiy muammolarning yechimini topish haqida bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishdir.	2	7
Kvalifikatsiya nomi:___Umumiy amaliyot shifokori___					